

MADANIY EKSPANSIYA MAZMUNI, YO'NALISHLARI VA NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

Xalilova Shaxlo Ravshanovna

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada madaniy ekspansiya mazmuni, yo'nalishlari va namoyon bo'lish shakllarning tarixiy ko'rinishlari o'z aksini topgan. Globallashuv sharoitida yashab turgan makonda boshqa millatlar va xalqlarning o'z ta'sirini ko'rsatishi, turmush tarsi va kundalik ijtimoiy me'yorlarini olib kirishi jamiyat a'zolarining axloqiy xatta harakatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu borada har bir jamiyat a'zosi o'z tarixiga nazar slogan holda ertangi kunini rejlashtirmog' lozim.

Аннотация: в статье отражены содержание, направления и исторические проявления культурной экспансии. Влияние других наций и народов в пространстве, живущих в условиях глобализации, внедрения образа жизни и повседневных социальных норм, также влияет на моральное поведение членов общества. В связи с этим каждый член общества должен планировать будущее, учитывая свою историю.

Annotation: the content, directions, and historical manifestations of cultural expansion are reflected in the article. The influence of other nations and peoples in the space living in the conditions of globalization, the introduction of lifestyles and daily social norms also affects the moral behavior of the members of the society. In this regard, every member of the society should plan for tomorrow, taking into account his history.

Kalit so'zlar: madaniyat, makon, zamon, ekspansiya, globallashuv, turmush tarzi, an'ana, urf-odat, axborot.

Key words: culture, space, time, expansion, globalization, lifestyle, tradition, custom, information.

Ключевые слова: культура, пространство, время, экспансия, глобализация, образ жизни, традиция, обычай, информация.

Insoniyat rivojlanib yashab turgan makonda globallashuv jarayoni tobora ommalashib borar ekan, yashash sharoiti, turmush tarzi va axborot ko'lamining kengayishi ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa madaniy ekspansiyaning shaxs ijtimoiylashuvining omili ekanligini ko'rsatadi.

Ekspansiya (lotincha — kengaytirish, yoyish) ma'nosini anglatib, millat ruhiyatiga xos bo'lgan turmush tarzi, an'ana, marosim, qadriyatlarga boshqa davlatlarning o'z ta'sirini ko'rsatilishini nazarda tutadi.

Uzoq ming yilliklar tarixi shundan dalolat beradiki, o'zbek milliy davlatchilik tarixi eng avvalo ma'naviyat - ma'rifatning jamiyat hayotida muhim o'rin egallaganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu azaliy an'anaga mustaqillik yillarida ham alohida e'tibor berilishi juda ahamiyatli bo'ldi. Qayd etish lozimki, istiqlolning dastlabki davrlaridanoq madaniyatning metodologiyasi o'zgardi.

O'zbekistonda istiqomat qilayotgan ko'p millatli xalqlarning madaniy taraqqiyoti, ularning o'zliklarini anglash jarayonlariga bo'lgan intilishlarini qonuniy -huquqiy asosda qondirish masalalari ham mamlakat hukumati oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo'ldi. Shu o'rinda 1989 yili madaniyat vazirligi huzurida respublika millatlararo madaniy markazning tashkil etilishini alohida ta'kidlash lozimdir.

Shuning uchun ham O'zbekiston hukumati madaniyatdagi milliylik va baynalmilallik nisbatini saqlashga muhim vazifa sifatida munosabatda bo'la boshladi. Ayni paytda 130 ga yaqin millat va

elat yashayotgan O'zbekistonda har bir millat ravnaqi, uning barqaror taraqqiyoti, xavfsizligi va yashash kafolatlariga har qanday tahdidlarning oldini olish, u yoki bu millatga mansub kishilar guruhining xudbinlik kayfiyatlarini muqarrar tarzda boshqa millat, xalq imkoniyatlarini zo'ravonlik va zug'um bilan chegaralab qo'yadigan davlat siyosatining ishlab chiqilishi bu boradagi amaliy ishlarning samarasini oshirdi.

Yurtimizda ma'naviy merosni tiklashga bag'ishlab amalga oshirilgan ulkan ishlardan biri Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yillik, Imom Ismoil alBuxoriyning 1225 yilligi hamda Amir Temurning 660 yilligi yubileylari tantanalarini nishonlash, ularning faoliyatini va ijodini to'liq yoritib xalqimizga bayon etish hamda nomlarini abadiylashtirish bo'ldi. Hukumatimiz qarori bilan 1996 yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi.

Uning yubiley tantanalari nafaqat O'zbekistonda balki xalqaro miqyosda ulkan ko'tarinkilik bilan nishonlandi. Amir Temurning hayoti, faoliyatiga doir bir necha o'nlab asarlar yaratildi. O'zi tug'ilgan SHaxrisabzda hamda Toshkentning markazida ulkan haykali o'rnatildi. SHuningdek, nihoyatda xashamatli tarzda Temuriylar muzeyi binosi qad ko'tardi. Amir Temur nishoni ta'sis etildi.

Bu qilingan ishlar shuni bildiradiki, mustaqillik sharofati bilan ko'plab haqiqatlar yuzaga chiqmoqda, ya'ni, shulardan eng yirigi - sho'rolar davrida g'irt bosqinchi, kallakesar, gazanda degan nomlar bilan niqoblanib kelingan Amir Temur nomi o'zining haqiqiy yirik tarixiy shaxs, intizomli iqtidorli hukmdor, etuk sarkarda, bunyodkor, yirik, markazlashgan turkiy davlat asoschisi degan haqiqiy obro' - e'tibori va mavqeini topdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent. Qo'qon. Shahrisabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Toptalgan tariximiz, qutlug' qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta'mirlandi, qayta tiklandi. Imom al Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur alMoturudiy, Ahmad al-Farg'oniy, Burhoniddin alMarg'inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulug' allomalarimizning sha'nlariga munosib yodgorlik majmualar yaratildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad ko'tardi.

Bugungi kunda mamlakatimizda etti mingdan ortiq yodgorlik, shu jumladan, 2500 ta me'moriy obida, 2700 tadan ortiq monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. 1991 yildan Xivadagi Ichonqal'a qo'riqxonasidagi, 1993 yildan Buxoro shahri markazidagi, 2000 yildan Shahrisabz shahri markazidagi yodgorliklar Yuneskonning "Umumjahon madaniy merosi" ro'yxatiga kiritildi yillarda bunyod etilgan Oqmasjid istiqloq davrida xalqimizning muqaddas ziyoratgohiga aylanib, yaxshilik va ezgulikka, tinchlik va osoyishtalikka. O'zaro ahil va hamjihat bo'lishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yhatiga kiritilgan. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodidan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan mimgminglab qo'lyozmalargacha bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta me'rosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi.

Madaniyat — jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. „ Madaniyat“ tushunchasi muayyan tarixiy davr

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

(antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o‘zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o‘ziga xos sohalari (mas, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izoxlash uchun qo‘llanadi. Tor ma’noda „madaniyat“ atamasi kishilarning faqat ma’naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.

Madaniyatning ilmiy, tarixiy konsepsiyalariga qarama-qarshi o‘laroq, marksistik nazariya ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi, ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlarining o‘zaro munosabati haqidagi qoidalardan kelib chiqib, antagonistik jamiyatlarda madaniyatning sinfiy xarakteri haqidagi qoidalarni ilgari surdi. Antagonistik formatsiyalarda har bir milliy madaniyatda ikki madaniyat borligi haqidagi lenincha qarash „hukmron ekspluatatorlik“ madaniyatiga „progressiv demokratik“ va „sotsialistik“ madaniyat elementlarini qarama-qarshi qo‘ydi. Ana shu qoidadan kelib chiqib, mustabid sovet tuzumi davrida amalga oshirilgan „madaniy inqilob“ natijasida ko‘pgina xalqlar madaniyatining ajoyib durdonalari yo‘q qilinib, madaniy merosning milliy ildizlari barbod etildi.

Madaniyat — umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o‘zigina yaratgan sof madaniyat bo‘lmaydi va bo‘lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millat o‘zi yaratgan bo‘lsada, unda ja-hon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta’siri bo‘ladi, albatta. Madaniyat hech qachon sinfiy hodisa bo‘la olmaydi. U barchaga baravar xizmat qiladi. Mas, san’at va adabiyot durdonalari, me’morlik obidalari, maqomlar, fan yutuqlari va boshqa barchaga tegishlidir.

Madaniyat kishilar faoliyatining faqat moddiy natijalari (mashinalar, texnik inshootlar, san’at asarlari, huquq, axloq normalari va hokazo)ni emas, shu bilan birga, kishilarning mehnat jarayonida voqe bo‘ladigan subyektiv kuch-quvvatlari va qobiliyatlari (bilim va ko‘nikmalari, ishlab chiqarish va professional malakalari, intellektual, estetik va axloqiy kamoloti, dunyoqarashi, ularning jamoa va jamiyat doirasidagi o‘zaro muomalalari)ni ham o‘z ichiga oladi.

Madaniyatning 2 asosiy turi — moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishga qarab madaniyat moddiy va ma’naviy madaniyatga bo‘linadi. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohasini hamda uning natijalari (mehnat qurollari, turar joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va boshqalar)ni o‘z ichiga oladi. Ma’naviy madaniyatga ong, ma’naviyat sohalari kiradi (bilim, axloq, ta’limtarbiya, huquq, falsafa, etika, estetika, fan, san’at, adabiyot, mifologiya, din va boshqalar).

Har bir jamiyat o‘z madaniyat tipiga ega. Jamiyatlarning almashinishi bilan madaniyat tipi ham o‘zgaradi, biroq bu hol madaniyat taraqqiyoti uzilib qolganini, eski madaniyat yo‘q bo‘lib madaniy meros, o‘tmish qadriyatlardan voz kechilganini anglatmaydi. Zotan, har bir yangi jamiyat o‘zidan ilgarigi jamiyatning madaniy yutuklarini zaruriy ravishda meros qilib oladi va ularni ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimiga kiritadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotning barcha sohasida bo‘lganidek, madaniyat sohasida ham tub o‘zgarishlar yuz berdi. Shaklan ham, mazmunan ham madaniyatning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. O‘zbekistonning mustaqil rivojlanishga utishi milliy madaniyatga sinfiy yondashishdan, uni sun’iy tarzda „yagona umummadaniyat“ga aylanishdan saqlab qoldi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, mustaqillikkacha bo‘lgan so‘nggi yetmish yil davomida madaniyat hukmron mafkura, mustabid tuzum tazyiqida G‘arb madaniyatiga taqlid ruhida rivojlandi. Ikkinchidan, milliy madaniyatning boy o‘tmishi bir yoklama o‘rganilib, uning ko‘pgina bebaho durdonalaridan xalqimiz bebahra bo‘lib keldi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Madaniyat tarixining jiddiy metodologik muammosi manbalarni sharhlashdir. Intizom klassiklari tarixchilarning hukmlari ishonchli, manbalar esa to'g'ri va xolis bo'lishi mumkinligiga ishonishgan. Madaniy tarix esa eng yuqori aniqlik darajasiga ega, chunki u yozma manbalar va moddiy yodgorliklar tomonidan beixtiyor, beixtiyor yoki hatto beixtiyor uzatiladigan materiallardan iborat.

Boshqa tomondan, o'tmish manbalari — matnlar, tasvirlar, rasmlar — bir tomonlama va mafkuraviy bo'lishi mumkin, u yoki bu harakatni rag'batlantirish uchun yaratilgan. 19-asr oxiri va 20-asr boshlari tarixchilarining usullari, masalan, Yakob Burxardt yoki Yoxan Huizinga, o'ta sub'ektiv bo'lgani uchun tanqid qilindi, chunki ularning ma'lum bir davrni tavsiflashda shaxsiy taassurotlari ta'sirlangan. Subyektivizm muammosining mumkin bo'lgan yechimlaridan biri bu „seriya tarixi“ bo'lib, unda manbalar xronologik tahlil qilinadi. 1960-yillarda Fransiyada paydo bo'lgan ketma-ket yondashuv madaniyat tarixining ko'plab sohalarida qo'llanadi, uning yordami bilan savodxonlikning tarqalishi yoki nashr etilgan kitoblar soni, tarixiy hujjatlar (vasiyatnomalar, nizomlar va boshqalar) o'rganiladi.) o'rganiladi, o'zgarishlar dinamikasi diniy tasvirlar va boshqalar ko'rib chiqiladi^[3]. Yana bir usul — matn yoki matnlar guruhini o'rganish, ma'lum so'zlarning qo'llanish chastotasini ochib beradigan „kontent tahlil“ usuli. Kontent tahlilining zaif tomoni uning tavsifiyligi va mexanik xususiyatidir: miqdoriy usullardan foydalanganda semantik xilma-xillikni hisobga olish va tematik umumlashtirishga o'tish qiyin^[3].

Madaniyat tarixiga an'anaviy yondashuvlar marksist tarixchilar tomonidan tanqid qilingan. Ular, birinchidan, madaniyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalar bilan aloqasi yo'q, deb hisoblashgan; ikkinchidan, intizom klassiklari konfliktlarning rolini hisobga olmadilar va madaniyatni bir hil hodisa sifatida ko'rsatdilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, klassik yondashuv ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi madaniy qarama-qarshiliklarni, jinslar, avlodlar o'rtasidagi farqlarni, „vaqt zonalarini“ni tasvirlay olmadi. Turli ijtimoiy sinflar turli davrlarda yashaydi, deb yozgan edi marksist Ernst Blox 1930. Shu bilan birga, marksistik yondashuvning kamchiliklari ham bor, chunki u paradoksni o'z ichiga oladi: marksizm o'z nazariyasida „ustki tuzilma“ deb hisoblangan narsalarni o'rganishga majbur. Yechimlardan biri Antonio Gramsci tomonidan ishlab chiqilgan va qator olimlarning e'tiborini tortgan „madaniy gegemoniya“ tushunchasi edi. Bunday yondashuv ijtimoiy sinflar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq o'rganish imkonini berdi, lekin u marksistik muammolarni ham hal qila oldi: bir tomondan, marksizm o'zining o'ziga xosligini yo'qotadi; boshqa tomondan, holizmni rad etish tadqiqotchi ishini madaniyat parchalarini o'rganish bilan cheklaydi.

Klassik mualliflar (Burxardt), shuningdek, marksistik tarixchilar metodologiyalarining kamchiligini Gegelchilik munosabatlari, ya'ni ma'lum bir davrning „zamon ruhi“ (*Zaytgest*) farazi deb hisoblash mumkin. Eng mashhur tanqid 1967-yilda Burxardt va uning izdoshlarini tanqid qilgan Ernst Gombrichdir. Gombrichning ta'kidlashicha, ular oxir-oqibatda turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan Ruhning mantiqiy rivojlanishi uchun Hegel tarixi falsafasiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Edward Said *Orientalism* (1978)
2. Samuel P. Huntington – *The Clash of Civilizations* (1996)
3. Arnold Toynbee – *A Study of History* published from 1934 to 1961

4. Ravshanovna, X. S. (2023). Bo 'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyasining zamonaviy modellari va ularni qo'llash metodlari. *Journal of Universal Science Research*, 1(9), 223-234.
5. Ravshanovna, X. S. (2023). Globallashuv sharoitida o'quvchilar aqliy-ruhiy qiyofasini shakllantirishda muloqot uslublarining ahamiyati. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 100-106.
6. Khalilova, S. (2022). PHILOSOPHICAL ASPECTS OF GLOBALIZATION. *Gospodarka i Innovatsiya*, 28, 6-11.
7. Ravshanovna, K. S. (2023). Factors Affecting the Formation of a Positive Attitude to the Learning Activity in Students. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 116-122.
8. XALILOVA, S. (2021). JAHON PEDAGOGIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MULOQOT VA MILLIY PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARIGA TRANSFORMATSIYASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 1(1).
9. Ravshanovna, X. S. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131-139.
10. Ravshanovna, X. S. (2023). O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o'zlashtirish jarayoniga ta'siri va ahamiyati. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 803-816.
11. Ravshanovna, X. S. (2022). BO 'LAJAK O'QITUVCHILAR VA O'QUVCHILAR O'RTASIDAGI MULOQOT JARAYONI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR. *Лучший инноватор в области науки*, 1(1), 814-819.
12. Ravshvnovna, K. S. (2023). THE ROLE OF THE CULTURE OF COMMUNICATION IN MODERN EDUCATION AND EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(3), 356-361.
13. Ravshanovna, X. S. (2024). The teacher's views on the technologies for the development of pedagogical communication methods. *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА*, 2(2), 368-376.
14. Халилова, Ш. Р. (2024). Технологии разработки методов педагогического общения в образовательном процессе сделанный увеличивать технологии. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 261-268.
15. Ravshanovna, X. S. (2024). PEDAGOGLAR TOMONIDAN DARSDA VA DARSDAN TASHQARI MUHITDA QO'LLANADIGAN PEDAGOGIK MULOQOTNING USLUBLARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 126-134.
16. Ravshanovna, X. S. (2023). PERSONAL DEVELOPMENT AS A SOCIAL-BIOLOGICAL PHENOMENON, AS AN OBJECT AND SUBJECT OF THE PEDAGOGICAL PROCESS. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
17. Ravshanovna, X. S. (2023). Teachers by before school education organization in pupils passable training in the process to the children applied pedagogical communication styles classification. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(5), 237-243.
18. Ravshanovna, X. S. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH*, 1 (8), 131-139.
19. Ravshanovna, X. S. (2024). TA'LIMDA PEDAGOGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI. *PEDAGOG*, 7(5), 318-324.

20. Ravshanovna, X. S. (2024). PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARINI TANLASHDA O 'QITUVCHINING MAHORATI. *PEDAGOG*, 7(4), 298-305.
21. Ravshanovna, X. S., & Marjona, Q. BO" LAJAK PEDAGOGLARNI KREATIV O'QITISH, TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH.
22. XALILOVA, S. (2024). O'ZBEK VA INGLIZ XALQ ERTAK QAHRAMONLARINING O'XSHASH XUSUSIYATLARI. *News of the NUUZ*, 1(1.1. 1), 319-322.
23. Xalilova, S. (2024). TALABALARNING BILIM KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA O'QUV MOTIVATSIYANING AHAMIYATI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(9), 575-586.
24. Xalilova, S. (2024). TABIATSHUNOSLIK O 'QITISH METODIKASI FANINING RIVOJLANISH TARIXI. *University Research Base*, 221-223.
25. Ravshanovna, X. S. (2025). INKLUZIV TA'LIMDA PEDAGOGIK MULOQOT USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 205-209.
26. Qizi, A. Z. B., & Siddikbekovna, Y. M. (2022). O 'QITUVCHINING TA'LIM BERISHIDA SHAXS XUSUSIYATLARI VA QOBILİYATLARINING MUXIMLIGI MASALASI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(1A), 117-120.
27. Ravshanovna, X. S. (2025). MADANIY EKSPANSIYAGA SABAB BO 'LUVCHI OMILLAR. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(2), 66-71.
28. Ravshanovna, X. S. (2025). ZAMONAVIY MADANIY EKSPANSIYA YO 'NALISHLARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(2), 42-47.
29. Ravshanovna, X. S. (2025). MADANIY EKSPANSIYANING NAMOYON BO 'LISHI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(2), 48-53.
30. Ravshanovna, X. S. (2025). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA INTERNETNING MADANIY EKSPANSIYADAGI O 'RNI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(2), 84-89.
31. Ravshanovna, X. S. (2025). MADANIY EKSPANSIYANING TARIXIY MISOLLARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(2), 37-41.
32. Ravshanovna, X. S. (2025). MADANIY EKSPANSIYANING IQTISODIY TA'SIRI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(2), 72-77.
33. Ravshanovna, X. S. (2025). MADANIY EKSPANSIYAGA QARSHI KURASH VA MILLIY MADANIYATNI SAQLASH. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(2), 78-83.
34. Ravshanovna, X. S. (2025). MADANIY EKSPANSIYANING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(2), 60-65.
35. Ravshanovna, X. S. (2024). PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARINI TANLASHDA O 'QITUVCHINING MAHORATI. *PEDAGOG*, 7(4), 298-305.
36. Toymurodov, A. (2023, December). MODERN INTERPRETATION OF PSYCHODIAGNOSTICS AND PSYCHOCORRECTION OF EXTREME SITUATIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 5, pp. 71-79).
37. Toymurodov, A. (2023). BASICS OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICES TO MILITARY PERSONNEL. *Академические исследования в современной науке*, 2(24), 148-152.

38. Shuhratovich, T. A. (2025). PSIXOLOGIK TESTLAR TURLARI VA ULARNI QANDAY QO'LLASH. Modern digital technologies in education: problems and prospects, 2(1), 8-15.
39. Abdurahmon, T. (2025). BOLALAR PSIXOLOGIASINI O 'RGANISH ULARNING RIVOJLANISH JARAYONLARI. Modern digital technologies in education: problems and prospects, 2(1), 16-21.